





2020- yil yanvar-oktyabr oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyatida jami **3 493,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **110,2 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2020- yil 1-noyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2241** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **337** taga oshdi.



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.11.2020
	01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
Namangan viloyati	1904	2241	100,0
Namangan sh.	673	733	32,7
tumanlar:			
Mingbuloq	72	81	3,6
Kosonsoy	190	268	12
Namangan	121	122	5,4
Norin	77	110	4,9
Pop	66	88	3,9
To'raqo'rg'on	77	91	4,1
Uychi	183	206	9,2
Uchqo'rg'on	92	137	6,1
Chortoq	136	149	6,6
Chust	134	165	7,4
Yangiqo'rg'on	83	91	4,1




Ma'lumot uchun: Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (32,7%), Kosonsoy tumani (12,0 %) va Uychi (9,2 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Pop tumani (3,9 %), Mingbuloq tumani (3,6 %), To'raqo'rg'on tumani (4,1 %), Yangiqo'rg'on (4,1 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **322,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,4** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,9 %** punktga ko'payib, **9,2 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namangan shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **73,7 %** i), Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,7 %** i), va Uychi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,7 %** i) va Chortoq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,0 %** i) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2020- yil yanvar-oktabr
- 2019- yil yanvar-oktabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **60,5 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **101,9 %** ni tashkil etgan holda **2 112,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.





Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **30,3 %** ni tashkil etdi yoki **1059,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **110,2 %** ni tashkil etdi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **168,6** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **84,1 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **3 325,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **113,6 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **4,8 %** va **95,2 %** ni tashkil etdi.

IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2020- yil yanvar-oktabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Namangan viloyati	3 493,6	168,6	100,0	3 325,0	100,0
Namangan sh.	977,3	12,9	7,7	964,3	28,9
tumanlar:					
Mingbuloq	148,4	8,6	5,1	139,8	4,2
Kosonsoy	314,7	15,0	8,9	299,7	9,0
Namangan	311,1	13,0	7,7	298,1	9,0
Norin	122,5	8,6	5,1	113,9	3,4
Pop	259,2	53,0	31,4	206,2	6,2
To'raqo'rg'on	205,8	10,0	5,9	195,8	5,9
Uychi	380,4	16,7	9,9	363,7	10,9
Uchqo'rg'on	169,4	7,4	4,4	162,0	4,9
Chortoq	221,2	6,4	3,8	214,8	6,5
Chust	213,4	8,3	4,9	205,1	6,2
Yangiqo'rg'on	170,2	8,7	5,2	161,5	4,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-oktabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Namangan viloyati	3 493,6	110,2	100,0
Namangan sh.	977,3	129,6	28,9
tumanlar:			
Mingbuloq	148,4	101,3	4,2
Kosonsoy	314,7	106,7	9,0
Namangan	311,1	105,8	9,0
Norin	122,5	97,1	3,4
Pop	259,2	111,6	6,2
To'raqo'rg'on	205,8	101,8	5,9
Uychi	380,4	112,8	10,9
Uchqo'rg'on	169,4	75,8	4,9
Chortoq	221,2	110,4	6,5
Chust	213,4	108,5	6,2
Yangiqo'rg'on	170,2	104,8	4,9

2020- yil yanvar-oktabr oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (977,3 mlrd. so'm) hamda Kosonsoy (314,7 mlrd. so'm) va Uychi (380,4 mlrd. so'm), Namangan (311,1) Pop (259,2 mlrd. so'm), Chust (213,4 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (205,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi